



RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

ZAMONAVIY JAMIYATDA ILMIY TADQIQOTLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

ILM – INNOVATSIYA – RIVOJLANISH



ILMIY
TADQIQOT



INNOVATSION
YONDASHUV



RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR



BARQAROR
RIVOJLANISH

Konferensiyaning maqsadi: Zamonaviy globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida fanlararo integratsiyaning ilm-fan, ta'lim, innovatsiya va jamiyat rivojida ahamiyatini yoritish, turli soha olimlari, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar va yosh izlanuvchilar o'rtasida ilmiy hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion g'oyalar hamda ilg'or tajribalarni almashishdan iborat.

Shuningdek, konferensiya:

- ta'lim va ilm-fan integratsiyasini rivojlantirish;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish;
- sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning turli sohalarga ta'sirini o'rganish;
- yoshlarning ilmiy-innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- barqaror rivojlanish va fanlararo tadqiqotlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Konferensiya sho'balari

1-sho'ba. Ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli transformatsiya

- Zamonaviy ta'lim metodlari
- Masofaviy ta'lim
- Sun'iy intellekt va ta'lim

2-sho'ba. Filologiya, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiyaning dolzarb masalalari

- Raqamli lingvistik
- Tarjima muammolari
- Medialingvistik va internet tili

3-sho'ba. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda zamonaviy tadqiqotlar va integratsion yondashuvlar

- Falsafa va ma'naviyat
- Psixologiya va sotsiologiya
- Milliy qadriyatlar va Yoshlar tarbiyasi

4-sho'ba. Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot istiqbollari

- AI texnologiyalari va Kiberxavfsizlik
- Raqamli boshqaruv tizimlari

Mundarija

Bayeshanov A. EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA EKOLOGIK TARBIYANING O'RNI	3
Mirzayeva P. SETTING – AS A MEANS OF CHARACTER FORMATION IN THE NOVEL “THE PLAGUE OF DOVES” BY LOUISE ERDRICH	7
Narzukulova F. TIL TAFAKKUR CHEGARASI SIFATIDA: LYUDVIG VITGENSHTEYN FALSAFIY TAHLIL	12
Muslimov Sh. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR QARASHLARIDA OILA MUHITINING SHAXS KAMOLOTIGA TA'SIRI	18
Muslimov Sh. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSIDA AYOLNING OILADAGI O'RNI VA TARBIYADAGI ROLI	23
Jantayev M. AL-XORAZMIY ILMIY MEROSIDA GUMANIZM VA UNING YOSHLAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	28
Mirzayeva P. PLACE, MEMORY, AND IDENTITY IN “THE PLAGUE OF DOVES” BY LOUISE ERDRICH	32
Сайдуллаева Д. СИЁСИЙ ПАРТИЯЛАРНИНГ ЖАМОАТЧИЛИК БИЛАН АЛОҚАЛАР СОҲАСИДАГИ НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАРИ: ЗАМОНАВИЙ КОММУНИКАЦИЯ МОДЕЛЛАРИ ВА ГИБРИД PR КОНЦЕПЦИЯЛАРИ ТАҲЛИЛИ	38
Turniyozov S., Farxodjonova N. BENBUDIYNING YOSHLAR HAQIDAGI QARASHLARI: "YOSHLARGA MUROJAAT" VA "MUHTARAM YOSHLARGA MUROJAAT" MAQOLALARI TAHLILI	44
Исаков Қ. АРАБ ВА ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИДА ПОРТРЕТ САНЪАТИ: ЖЎРЖИЙ ЗАЙДОН ВА АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ИЖОДИ МИСОЛИДА	51

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA EKOLOGIK TARBIYANING O’RNI

Bayeshanov Abdulla Mustafayevich
Guliston davlat universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiat va inson munosabatlarining sovuqlashishi va inqirozining sabablari, ekologik tarbiyaning mazmuni va mohiyati, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, ekobarqarorlikni ta’minlashdagi o’rni ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: ekologik tarbiya, tabiiy resurslar, ekologik barqarorlik, atrof-muhit, ekologik ta’lim, ekologik vijdon.

Bugungi globallashgan dunyoda fan-texnika, ilm-fan yutuqlari tobora taraqqiy etib bormoqda. Shu bilan bir qatorda bashariyatning tabiat va atrof muhitga texnogen bosimi ortib, biosfera muvozanatini buzilishiga sabab bo’lmoqda. Tabiat zanjirini buzulishi natijasida iqlim o’zgarishi, biologik xilma-xillikni yo’qolib borishi, tabiiy resurslarni, xususan ichimlik suvining kamayib borishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Mana shunday vaziyatda ekologik ta’lim va tarbiyaning tubdan isloh qilish, kuchaytirishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Tarbiya masalasiga azal-azaldan o’zbek xalqi eng dolzarb vazifa sifatida qarab kelgan. Yosh avlodni axloqiy sifatlarini shakllantirish, barkamol avlodni har tomonlama yetuk, insoniy sifatlar asosida tarbiyalashga muqaddas burch sifatida qarab kelingan. Ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniy: “tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”¹ deganida aynan shu masalani nazarda tutgan desak yanglishmagan bo’lamiz. O’zbek tilining izohli lug’atida: “arabcha-rivojlantirish, parvarish qilish, o’stirish; o’rgatish; ilm berish”-deya izohlangan. O’zbekiston Milliy ensiklopediyasida: “tarbiya- shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo’lgan xususiyatlarga ega bo’lishini ta’minlash yo’lida

“Zamonaviy jamiyatda ilmiy tadqiqotlar va innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi respublika miqyosidagi konferensiya

ko‘riladigan chortadbirlar yigindisi”-deb ta’riflanadi. Tarbiya tizimida ekologik tarbiya alohida o‘rin tutadi. Ekologik tarbiya bu shaxsda tabiatga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otishga, atrof-muhit, ekologiyaga mas’uliyatli munosabatni, ekologik ong, ekologik vijdon, ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan ma’naviy-axloqiy jarayondir. Bugungi ekologik tarbiyaning eng asosiy vazifasi ekosentrik dunyoqarashni shakllantirishdir. Insonni tabiatni eksplutatsiya qilishga haqli “ega” degan destruktiv g‘oyalardan halos etib, tabiatni himoyachisi, haloskori degan konstruktiv g‘oyalar sari yetaklashdir.

Ekologik tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy negizlari Sharq xalqlari tarixiy merosi, qadriyatlarida o‘z aksini topgan. Qariyb uch ming yillik tarixga ega Avesto kitobida ekologik tarbiya masalalari o‘z aksini topgan. Tabiat e’zozlangan. To‘rt unsur suv, havo, olov, tuproq muqaddas sanalgan. Suv muqadd sanalib, hatto unga tupurish ham eng og‘ir gunoh sanalgan. “Zardushtiylikda yer va suv nafaqat tabiiy resurs sifatida, balki kosmik va ma’naviy tartibning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Yer - insoniyatning jismoniy hayoti uchun zamin bo‘lib xizmat qilsa, suv - poklovchi va yangilovchi unsur sifatida muhimdir. Bu ikki unsur Avestoda ko‘pincha bir-birini to‘ldiruvchi va yovuz kuchlarga qarshi turuvchi ilohiy asoslar sifatida tasvirlanadi”².

Tabiatni asrab-avaylash, u bilan uyg‘un holda yashash kabi g‘oyalar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi-maqollarida ham o‘z aksini topgan. “Suv ichadigan qudug‘ingga tupurma”, “Serdaraxt qishloqni sel olmas”, “Quyosh, havo — tanga davo”, “Tog‘ havosi — dard davosi”³ kabi maqollar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, ekologik tarbiya bugun paydo bo‘lgani yo‘q. Xalqimiz azaliy qadriyatlari, turmush tarzi hamisha tabiatni asrashga qaratilgan. Afsuski, iqtisodiy manfaat, tabiatdan cheksiz foydalanishga bo‘lgan intilish va kelajakni o‘ylamaslik oqibatida ekologik tarbiya jarayoni sustlashdi. Eng katta muammo ekologik savodxonlik ya’ni ekologik talim bilan ekologik tarbiya

² Yuldosheva, B., & Astanova, N. (2025). AVESTO MATNLARIDA YER VA SUV UNSURLARINING TARIXIY TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(4), 532-539.

³ O‘zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; M as’ul muharrir: Sh.Turdimov. — T.: «Sharq», 2005. — 512 b.

o‘rtasidagi aloqadorlik zanjirida uzulish bo‘ldi. Inson nazariy jihatdan tabiatga yetkazilgan har bir zarar oqibatda o‘ziga tashvish olib kelishini bilsa-da, amalda uni eksplutatsiya qilishdan, iste‘molchilik kayfiyatidan voz kecha olmadi. Ya‘ni tarbiyadagi jiddiy kamchiliklar borligini ko‘rsatdi. Ekologik ta‘lim qanchalik puxta bo‘lmasin, ekologik tarbiyada oqsash kuzatilsa natijaga erishib bo‘lmaydi. “Kimki bilimda ilgarilab, axloqda oqsaydigan bo‘lsa, bilingki u oldinga emas katta tezlik bilan tubanlik sari ketipti”⁴, -deganida Arastu haq edi. Ekologik tarbiya faqatgina Ona tabiatni asrash emas, balki kishining o‘z vijdoni, imonini asrash, mas’uliyatini his qilish jarayonidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ekologik tarbiya-ekologik barqarorlikning asosidir. Ekologik ta‘limni ekologik tarbiya bilan to‘ldirib, mustahkamlanib borilmas ekan ekologik barqarorlikni ta‘minlash mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent.Yoshlar ijodiy nashriyot uyi, 2018. - 11-bet.
2. Yuldosheva, B., & Astanova, N. (2025). AVESTO MATNLARIDA YER VA SUV UNSURLARINING TARIXIY TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(4), 532-539.
3. O‘zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; M as’ul muharrir: Sh.Turdimov. — T.: «Sharq», 2005. — 512 b.
4. Иодль Ф. История этики в новой философии: Кант и этика в девятнадцатом столетии. Пер. с нем. Либроком 2011. 528 с.
5. BAYESHANOV, A. (2026). O‘zbekistondagi ekologik muammolarni bartaraf etishda biosentrizm va ekologik vijdon omilining ijtimoiy-falsafiy tahlili. *«ACTA NUUZ»*, 1(1.3), 50-52.

**“Zamonaviy jamiyatda ilmiy tadqiqotlar va innovatsion yondashuvlar”
mavzusidagi respublika miqyosidagi konferensiya**

6. Karimova, S. (2025). MA’NAVIYAT VA UNI SHAKLLANISHIGA
TA’SIR ETUVCHI OMILLAR. *Универсальная индексная библиотека
инновационных исследований в современном мире: теория и практика*, 4(22),
81-84.